



XALQ DEPUTATLARI QUYICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 10-aprel VII-25-23-10-140-K/26 Quyichirchiq tumani

2026-yilda Quyi Chirchiq tumani bo'yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-son qaroriga asosan tuman Davlat soliq inspeksiyasi U.Atabayevning xisobotini tinglab, Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya 2026-yil 7-aprelda DKQ 03-01/1-26-sonli qarorini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyi Chirchiq tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i U.Atabayevning 2026-yilda Quyi Chirchiq tumani bo'yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risidagi xisoboti tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-387-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol

mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi inobatga olinsin.

3. 2026-yilda Quyi Chirchiq tumani bo'yicha alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son qonunining 18^{lnpe} - moddasidagi "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomilining murakkablashtirilishini va tadbirkorlik faoliyati subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan, shuningdek ularning javobgarligiga oid yangi choralarni belgilaydigan qonunchilik hujjatlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kiradi.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari K.Uskanbayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining birinchi o'rinbosari B.Isroilov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i U.Aatabayev mazkur qaror ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsinlar.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari K.Uskanbayev hamda ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (G. Nugmanova) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



**USMANOVA
YAYRA
ONGAROVNA**

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2026-yil 10-apreldagi
VII-25-23-10-140-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun
yig'imlar stavkalari haqida
MA'LUMOT**

Yig'im turi	Bir oyga, so'mda	
	O'RQ-1105-son Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun to'lanadigan yig'im miqdori
Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im.	300 000	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im.	150 000	180 000